

**QISHLOQ XO'JALIGINI JAHON, RESPUBLIKA IQTISODIYOTIDAGI O'RNI
VA AHAMIYATI. QISHLOQ XO'JALIGI JAHON IQTISODIYOTINING,
RESPUBLIKA XALQ XO'JALIGINING MUHIM TARMOGI'**

Xojabayev Nurmaxambet Muratbayevich

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti

Annotatsiya: *Qishloq xo'jaligining jahon iqtisodiyoti va respublika xalq xo'jaligida tutgan o'rmini, qishloq x o'jaligining o'ziga xos hususiyatlarini, tarmoqning iqtisodiy-ijtim oiy ahamiyatini, erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirish bosqichlaridagi o'zgarishi, ularga ta'sir etuvchi om illam i tahlil qilishni, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan hukumatning tashkiliy, iqtisodiy va ijtim oiy chora-tadbirlarini va qishloq x o'jaligini rivojlantirish.*

Kalit so'zlar: *Qishloq, sanoat, mexanizatsiya, rivojlantirish, jahon iqtisodiyoti, mamlakat rivojlanishi.*

Qishloq xo'jaligining jahon iqtisodiyotidagi o'rmi keyingi yillarda keskin ortib bormoqda. Shuning uchun ham qishloq x o'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning asosiy omillari bo'lgan yer, suv, mehnat resurslari va ulam ing o'ziga xos xususiyatlarini rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar m iqtyosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Q ishloq x o'jaligi moddiy ishlab chiqarishning asosiy va eng qadimgi tarmoqlaridan bin bo'lib, ahozga oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat uchun xom -ashyoning asosiy qism ini yetkazib beradi. Q ishloq xo'jaligi asosan, ikkita yirik tarmoq - dehqonchilik va chorvachilikdan iborat. Bu ikki soha aholi uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetkazib beradi. Q ishloq x o'jaligi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarim dastlabki qayta ishlaydigan bir qancha tarmoqlami ham o'z ichiga oladi. Iqtisodiy jihatdan faol aholining taxminan yarmi, kamroq taraqqiy etgan mamlakatlarda esa ko'pincha 80 90 foizidan ortig'i qishloq x o'jaligida band. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil etadi. Q ishloq aholisining ijtim oiy muammolari, joylashishi qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'liqdir. Bir qancha mamlakatlarda o'rmon xo'jaligi ham qishloq xo'jaligi tarkibiga kiradi.

Qishloq xo'jaligi aholi uchun oziq ovqat mahsulotlari yetkazib berish bilan bir qatorda, sanoat tarmoqlari (oziq ovqat, omuxta em, to'qima chilik, dori darmon, atir upa sanoati va boshqalar)ni xom ashyo, ot ulov (yilqichilik, tuyachilik va hokazo) bilan ta'minlaydi. Dehqonchilik tarmoqlari (g'allachilik, paxtachilik, sabzavotchilik, m evachilik, uzumchilik va boshqalar) hamda chorvachilik tarmoqlari (qoramolchilik, cho'chqachilik, qo'ychilik, parrandachilik, pillachilik, baliqchilik kabilari) ni o'z ichiga oladi. Bu tarmoqlami birgalikda rivojlantirish m oddiy va mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanish imkonini beradi.

Hozirgi davrda bu tarmoqda aholi iste'm ol qilayotgan tovarlaming 85 foizidan k o'prog'i ishlab chiqarilmoqda. Ular o'sim likchilik hamda chorvachilik mahsulotlaridan iborat. 2 0 0 9 yilda 0 'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 19,7 foizi qishloq x o'jaligida yetishtirilgan. Shu yilda barcha sanoat tarmoqlarida mamlakat yalpi ichki mahsulotining 33,5 foizi, qurilishda esa, 7,5 foizi yaratilgan. Raqamlar qishloq x o'jaligi tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'm i ulkan ekanligidan dalolat bermoqda. Shu yilda qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan barcha turdag'i tadbirkorlar tomonidan 6346,7 mlrd. so'm lik yalpi

mahsulot yaratilgan. U asosan 3535,4 ming tonna paxta, 8250,3 ming tonna don, 4513,3 ming tonna sabzavot, 1340,4 m ing tonna meva, 1103,4 ming tonna go'sht, 546,3 ming tonna sut, 701,6 ming dona qorako'l teri, 2046,3 mlrd. dona tuxum va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlaridan iborat. Barcha turdag'i qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda Respublika iqtisodiyotida band bo'lgan mehnat resurslarining 40 foizga yaqini qatnashgan.

Mamlakat dehqonchiligi sug'orishga asoslanganligi uchun katta miqdordagi suv resurslarini talab etadi. Lekin, bu talab ichki suv resurslari bilan atigi 60 foizgagina qondirilmoqda. Bunday hoi Amudaryo hamda Sirdaryo havzalaridan katta miqdordagi suv resurslarini jalb etishni talab etadi. Hozirgi davrda qishloq xo'jaligida 42-46 mlrd. m³ suv resurslaridan foydalanilmoqda. Tabiatda yer va suv resurslari cheklangan, ular takror ishlab chiqarilmaydigan resurslar hisoblanadi. Shuning uchun har bir hektar yerdan, har m³ suvdan unumli foydalanish lozim, tadbirkorlik asosida fan-texnika yutuqlarini joriy etib, samarali natijalarga erishish mumkin.

Qishloq x o 'jalik mahsulotlarini yetishtirishda sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan ko'plab qishloq x o 'jaligi texnikalari, kim yoviy vositalar, yoq ilg'i, yonilg'i-m oylash materiallari va boshqa vositalardan foydalanilmoqda. Masalan, tarmoqda 2008 yilda 85,3 mingga yaqin turli xildagi traktorlar, 31,6 mingtadan ko'proq yuk tashish mashinalari, 5,2 mingtaga yaqin g'alla o 'radigan, bir mingtaga yaqin paxta teradigan kombaynlar, ko'plab boshqa texnikalardan foydalanilgan. Tarmoq m iqtyosida yerlam ing unumdorligini, ekinlam ing esa hosildorligini oshirish maqsadida 450,3 ming tonna mineral o 'g 'itlardan foydalanilgan. Q ishloq xo'jaligida ishlab chiqilayotgan mahsulotlam ing jahon bozoriga chiqarilishi natijasida 0 'zbekistonning mavqeい tobora oshib bormoqda. H ozirgi davrda 0 'zbekiston A va E tipidagi paxta tolasini ishlab chiqarish bo'yicha jahonda X itoy, AQSH, Hindiston va Pokiston davlatlaridan so'ng beshinch o 'rinni, tolani eksport qilish bo'yicha esa ikkinchi o 'rinni egallab kelmoqda. Shu bilan birgalikda 0 'zbekiston jahon bozoriga nihoyatda sifatli bo'lgan qorako'l terisi, pilla, sabzavot, poliz va bog'dorchilik mahsulotlarini ham chiqaradi. Mazkur mahsulotlami qayta ishlash maqsadida so'nggi yillarda chet el investitsiyalarini jalb etish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ulam i kelajakda jadal sur'atlar bilan rivojlantirish siyosi, iqtisodiy hamda ijtim oiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. H ozirgi davrda mamlakat aholisini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash darajasi y il sayin ortib bormoqda. 2008 yilda respublika aholisining jon boshiga 180 kg.ga yaqin un mahsulotlari, 136 kg.paxta xom -ashyosi, 152 kg. sabzavot mahsulotlari, 38 kg.dan ko'proq kartoshka, 41 kg. go'sht, 173 kg. sut hamda 76 donaga yaqin tuxum ishlab chiqarilgan. Demak, mamlakat aholisining unga bo'lgan talabi qondirilgan. Kelajakda esa unning sifatini yaxshilashga alohida e'tibor berish talab etiladi. Lekin boshqa mahsulotlar bo'yicha xalqim izning meditsina m e'yorlariga oid talabi to'liq qondirilganicha yo'q.

Q ishloq x o 'jaligida ishlab chiqarish m avsum iy xarakterga ega. Bunda ayniqsa, kuzgi g'alla yetishtirishda ishlab chiqarish davri bilan ish vaqt o'rtaсидаги sezilarli farqni ko'rish mumkin. K uzgi g 'allani tayyorlash va ekish davri avgust, sentyabr oyalaridan boshlanib, hosil kelasi yilning iyul oyid ayig'ishtirib olinadi.

Ushbu davr oralig'ida ish vaqtida bir necha marta uzilishlar bo'ladi: ekin maydonlarini tayyorlash, ekish, ekinlar parvarishi, hosilni yig'ishtirib olish va boshqalar. Ishlab chiqarish davri esa ekinlam ing tabiiy o 'sishi va rivojlanishi sababli uzlusiz davom etadi. M avsum iylik

ishlab chiqarishni tashkil etishga, mehnat resurslari va texnikadan foydalanishga sezilarli ta'sir k o'rsatadi. Shuningdek, qishloq x o 'jaligining mavsum iylik xarakteri qayta ishlash sanoatida ham aks etadi. Chunki, qishloq x o 'jaligi xom - ashyosi y il davomida notekis taqsimlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: 0 'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi, 2004-304 b.
2. Salimov B.T. va boshqalar. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiT.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi, 2004-176 b.
3. Модель "Сельская профильная школа"- М.: АПК и ППРО, 2004-32 ст.
4. Экономика сельского хозяйства. Учебник, под.ред. Коваленко. Н.Я.М.: Юркнига, 2004-392 ст.
5. Zokirov O., Pardaev A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik.-T.: O'AJBNT markazi 2003-456 b.